



KO'P O'LCHAMLI KAMBAG'ALLIKNI ANIQLASH USULINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING AHAMIYATI

PhD Mirzamahmudova Madina

O'zbekiston Milliy universiteti

ORCID: 0000-0001-5950-0083

mirzamaxmudovamadina@gmail.com

Sobitov Zohidxon

O'zbekiston Milliy universiteti

ORCID: 0009-0005-0099-2470

sobitovzohid6@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ko'p o'lchamli kambag'allik (MPI), uni aniqlash metodikasi, O'zbekistonda kambag'allik darajasi mavjud holati tahlil etilgan. Kelgusida mamlakatda statistik ma'lumotlar, iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar, MPI ni joriy etish imkoniyatlari bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: ko'p o'lchamli kambag'allik (MPI), ta'lim, salomatlik, turmush darajasi, OPHI, ishsizlik, ijtimoiy yordam.

ВАЖНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ МЕТОДА ОПРЕДЕЛЕНИЯ МНОГОМЕРНОЙ БЕДНОСТИ В ПРАКТИКУ УЗБЕКИСТАНА

PhD Мирзамахмудова Мадина

Национальный университет Узбекистана

Собитов Зоҳидхон

Национальный университет Узбекистана

Аннотация. В статье анализируется многомерная бедность (MPI), методика ее определения, уровень бедности в Узбекистане, текущее состояние. В дальнейшем в стране приводятся статистические данные, выводы о реформах, направленных на повышение эффективности хозяйственной деятельности, о возможностях внедрения MPI.

Ключевые слова: многомерная бедность (MPI), образование, здоровье, уровень жизни, OPHI, безработица, социальная помощь.

THE IMPORTANCE OF INTRODUCING THE METHOD OF DETERMINING MULTIDIMENSIONAL POVERTY INTO THE PRACTICE OF UZBEKISTAN

PhD Mirzamahmudova Madina

National University of Uzbekistan

Sabitov Zohidkhon

Национальный университет Узбекистана

Abstract. The article analyzes multidimensional poverty (MPI), the methodology of its definition, the level of poverty in Uzbekistan, and the current state. In the future, the country provides statistical data, conclusions on reforms aimed at improving the efficiency of economic activity, and the possibilities of implementing MPI.

Keywords: multidimensional poverty (MPI), education, health, standard of living, OPHI, unemployment, social assistance.

Kirish.

An'anaviy yondashuvlarda kambag'allik asosan daromad yoki iste'mol darajasiga asoslangan holda o'lchanadi. Biroq kambag'allik faqat iqtisodiy yetishmovchilik bilan cheklanmay, ta'lim, sog'liqni saqlash, turar joy, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kabi turli o'lchovlarni ham o'z ichiga oladi. Ko'p o'lchamli yondashuv ushbu murakkablikni hisobga olishga imkon beradi. Ko'p o'lchamli kambag'allikni aniqlash yordamida aholining qaysi qatlami qaysi sohada yordamga muhtoj ekanligini aniqroq belgilash mumkin. Bu esa davlat va nodavlat tashkilotlarga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqishga va resurslarni to'g'ri taqsimlashga yordam beradi.

Ko'p o'lchamli kambag'allik indeksi (MPI) Jahon banki, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llaniladigan global yondashuvlardan biridir. Ushbu modelni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish milliy rivojlanish strategiyasini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi va global reytinglarda mamlakat pozitsiyasini yaxshilaydi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida (BRM) kambag'allikni kamaytirish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Ko'p o'lchamli kambag'allikni amaliyotga joriy qilish BRM doirasidagi "Kambag'allikni barcha shakllarda yo'q qilish" maqsadiga erishish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'p o'lchamli kambag'allikni joriy qilish orqali mahalliy sharoitlarga mos indikatorlarni belgilash va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan dasturlarni samarali bajarish mumkin. Ko'p o'lchamli kambag'allikni tahlil qilish va kamaytirish kambag'allikni chuqurlashtiruvchi ijtimoiy tengsizliklarni aniqlash va ularni yo'q qilishda muhim o'rin tutadi. Bu, o'z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Kambag'allik global mavzu bo'lganligi va u davlatlarning rivojlanganlik darajasini belgilab berganligi sababli, bu muammoni hal qilish borasida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 11-sentabr kuni kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektorda "Bundan buyon kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. Hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo'g'indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag'allikdan olib chiqish bo'lishi kerak. Bu borada nazorat ham, so'rov ham qattiq bo'ladi" (Mirziyoyev, 2024), – deb ta'kidlab o'tdi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzu xalqaro darajada keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida uning o'rganganlik darajasi hali yetarli emas. Shu sababli, bu sohada chuqur tahliliy ishlar olib borish va xalqaro tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. Ko'p o'lchamli kambag'allik Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Oksford Kambag'allik va Inson Taraqqiyoti Tashabbusi (OPHI) tomonidan chuqur o'rganilgan. MPI kambag'allikni ta'lim, sog'liqni saqlash va yashash darajasi kabi ko'rsatkichlar orqali baholashni nazarda tutadi. Bu yondashuv ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda muvaffaqiyatli amalda qo'llanilmoqda.

Ko'p o'lchamli kambag'allikni amaliyotga joriy etishning ahamiyati to'g'risida dunyoning ko'p olimlari jumladan, Amartya, Mahbub, Alkire, Foster, Nussbaum, Atkinson, Manuel, Paola, Suman ko'p o'lchovli farovonlik va kambag'allik choralarining siyosatga yo'naltirilgan qo'llanilishiga alohida e'tibor bergan.

Ko'p o'lchovli kambag'allik masalasini amaliyotga joriy etish bo'yicha yaqin xorijdagi olimlar orasida MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) davlatlari va Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya kabi) olimlari alohida e'tiborga loyiq. Satubaldina (Nazarboev Universiteti) Qozog'istonda ko'p o'lchovli kambag'allikni ta'lim, sog'liq va yashash sharoitlari asosida baholash metodikasini ishlab chiqqan, Khamitova Raqamli kambag'allik reyestrlari va ko'p indikatorli monitoring tizimi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan, Jeenbaeva (Qirg'iziston Milliy Universiteti) qishloq

hududlarida ko'p o'lchovli kambag'allikni aniqlash bo'yicha Qirg'iziston uchun milliy model ishlab chiqqan, Toktogulov kambag'allikni mahalliy darajada boshqarish orqali kamaytirish – ijtimoiy byudjetlarni mahalliyashtirish usullari tahlil qilgan, Fayzulloyev, Barseghyan va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

O'zbekistonda Vaxabov kambag'allik tushunchasi uning kelib chiqish sabablari tadqiq etgan; Xasanov respublikada kambag'allikni qisqartirish dasturlarini amalga oshirish metodologiyasini ishlab chiqqan; Abulqosimov kambag'allik, uning kamaytirish yo'llariga oid tavsiyalar bergan; Baxtiyorovning ilmiy ishlarida kambag'allarga ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturlari yoritilgan; G'aniev aholi tarkibi orasidagi kambag'allik jumladan, ayollar va erkaklar kambag'allik ko'rsatkichlarini bartaraf etish, ularni ish bilan ta'minlashga qaratilgan dasturlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar ishlab chiqqan; Mirzamahmudova o'zining ilmiy ishlarida O'zbekistonda kambag'allikni aniqlash metodologiyasini rivojlantirish jumladan, ko'p o'lchamli kambag'allikni joriy etishning afzalliklari ilmiy - amaliy jihatlarini tadqiq etilgan.

O'zbekistonda ko'p o'lchamli kambag'allikni amaliyotga joriy etish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni yanada samarali rejalashtirish, aholi turmush darajasini oshirish va xalqaro standartlarga mos rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv mamlakatda kambag'allikni chuqurroq tahlil qilish va samarali yechimlar topishda yangi bosqichni boshlab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlash va umumlashtirish, statistik kuzatish, nisbiy miqdorlar tahlili, ekspert baholash, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

MPI uchta asosiy o'lchovga asoslanadi, ularning har biri o'ziga xos ko'rsatkichlarga ega. Bu uchta o'lchov asosida hisoblanadi:

1-jadval

Ko'p o'lchamli kambag'allik (MPI)ning asosiy o'lchov ko'rsatkichlari

Yo'nalish	Ko'rsatkichlari
I. Ta'lim:	1. Ta'lim yillari: Agar uy xo'jaligi a'zosi kamida bitta katta yoshli 5 yil yoki undan ortiq maktab ta'limiga ega bo'lishi
	2. Bolalarning maktabga borishi: Agar maktab yoshidagi har qanday bola tegishli yoshga qadar maktabga bormasligi uy xo'jaligi ushbu ko'rsatkichdan mahrum hisoblanadi.
II. Salomatlik:	1. Oziqlanish: Agar uy xo'jaligi a'zolaridan biri to'yib ovqatlanmasa
	2. Bolalar o'limi: Agar oilada bolalar o'limi kuzatilgan bo'lsa, ushbu o'lchovlardan uy xo'jaligining mahrum deb hisoblanadi.
III. Turmush darajasi:	1. Ovqat pishirish uchun yoqilg'i: Agar uy xo'jaligi qattiq yoqilg'idan (o'tin yoki ko'mir kabi) foydalansa
	2. Sanitariya: Yaxshilangan sanitariya-texnik vositalardan (masalan, hojatxonalar) foydalanish imkoniyati yo'qligi
	3. Ichimlik suvi: Agar uy xo'jaligi toza ichimlik suviga ega bo'lmasa
	4. Elektr: Agar uy xo'jaligi elektr energiyasidan mavjud bo'lmasa
	5. Zamin qoplamasi: Agar uy xo'jaligida yaroqsiz yoki shunga o'xshash past sifatli taxta bo'lsa
	6. Aktivlar: Agar uy xo'jaligida televizor, muzlatgich, telefon va boshqalar kabi mulkka egalik bo'lmasa, ular mahrum qilingan hisoblanadi.

2024 - yilda O'zbekistonda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan quyidagi yo'nalishlarda muhim islohotlar amalga oshirildi:


1. Ish haqi va pensiyalar oshirildi. Minimal ish haqi va bazaviy hisoblash miqdori oshirildi, bu esa byudjet tashkilotlari xodimlarining daromadlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Pensiyalar va nafaqalar miqdori bosqichma-bosqich ko'paytirildi. Tibbiyot va ta'lim sohasidagi xodimlar uchun alohida rag'batlantiruvchi to'lovlar joriy etildi. 2024- yil 1-oktyabrdan boshlab oylik ish haqlari 10 foizga, byudjet tashkilotlarida ishlovchi pedagog va shifokorlarniki esa 15 foizga oshirildi.

2. Soliq yukini kamaytirildi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi soddalashtirildi va ba'zi toifadagi ishchilar uchun kamaytirildi. Ijtimoiy to'lovlarning tartibi optimallashtirilib, kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun imtiyozlar berildi.

3. Bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirildi. "Har bir oila – tadbirkor" va "Yoshlar – kelajagimiz" dasturlari doirasida kreditlar ajratildi, bu esa oilaviy va yoshlar bizneslarini rivojlantirishga yordam berdi. Aholini kasb-hunarga o'qitish markazlari faoliyati kengaytirildi. Ayollar bandligini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishga tushirildi.

4. Ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirildi. Ijtimoiy nafaqalar va yordam pullari elektron tizim orqali aniqlashtirilib, eng muhtoj qatlamlarga manzilli yordam ko'rsatildi. "Ijtimoiy reyestr" orqali aholining daromad darajasi aniqlanib, manzilli yordam ko'lamini kengaytirish ishlari olib borildi.

5. Inflatsiyani jilovlash va narx-navo barqarorligini ta'minlandi. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari importiga bojxona imtiyozlari joriy etilib, ichki bozor barqarorligi ta'minlandi. Raqobatni oshirish orqali ayrim sohalarda narxlar barqarorlashtirildi, bu esa real daromadlar pasayishining oldini oldi.



1-rasm. 2023-2024-yillarda aholi daromadlari tarkibi (foiz hisobida) (O'zbekistonda 2024-yilda kambag'allik darajasi 8,9 foizga qisqardi., 2025)

Olib borilgan islohotlar natijasida aholi daromadlarini oshirishga erishildi. Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari va mikromoliya tashkilotlari orqali 611,5ming fuqaroga 17 trln so'm kreditlar ajratildi. Shuningdek aholining real daromadlari 2024-yilda 10,7 foizga ish haqi bo'yicha daromadlar 12,9 foiz oshdi. Hududlar kesimida daromadning eng sezilarli o'sish ko'rsatkichlari Farg'ona viloyatida 19,1 foizni, Toshkent shahrida 17 foizni, Buxoro viloyatida 11,4 foizni tashkil kuzatildi. Rasmiy ish bilan bandlar 5,1 mln kishiga (30 foiz)ga oshdi. 2024-yilda Toshkent shahri aholisining o'rtacha daromadi 3,6 mln so'mni, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida 2,2 mln so'mni tashkil etdi.

2-jadval

2022-2024-yillarda hududlar kesimida kambag'allik darajasi (foiz hisobida)
(O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024; O'zbekistonda 2024-yilda
kambag'allik darajasi 8,9 foizga qisqardi., 2025)

Hududlar	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	14,1	11,0	8,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19,9	13,6	10,8
viloyatlar			
Andijon	17,4	11,9	9,5
Buxoro	11,9	11,8	8,7
Jizzax	16,1	14,2	11,8
Qashqadaryo	12,7	11,5	9,6
Navoiy	9,2	7,6	5,7
Namangan	12,8	10,4	7,6
Samarqand	14,0	10,5	7,5
Surxondaryo	13,7	10,6	9,3
Sirdaryo	19,5	13,8	11,3
Toshkent	14,5	10,2	8
Farg'ona	11,6	10,1	8,6
Xorazm	19,1	14,1	11,9
Toshkent sh.	8,5	7,9	7,3

“Mamlakatning barcha hududlarida ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Kambag'allikning eng past ko'rsatkichi Navoiy viloyatida (5,7 foiz), eng yuqori ko'rsatkichi Xorazm viloyatida (11,9 foiz) qayd etilgan. Shuningdek, Buxoro va Samarqand viloyatlarida sezilarli o'sish qayd etildi, bu yerda kambag'allik o'rtacha 3,1 foiz punktga qisqarib, mos ravishda 8,7 va 7,5 foizni tashkil etdi. Namangan viloyati va Qoraqalpog'istonda kambag'allik darajasi 2,8 foiz bandga — 7,6 foiz va 10,8 foizgacha pasaydi. Kambag'allik ko'rsatkichining eng kam pasayishi Qashqadaryo viloyatida— 11,5 foizdan 9,6 foizgacha (1,9 f.p.), Navoiy viloyatida— 7,6 foizdan 5,7 foizgacha (1,9), Farg'onada— 10,1 foizdan 8,6 foizgacha (1,5), Surxondaryo viloyatida— 10,6 foizdan 9,3 foizgacha (1,3) va Toshkent shahrida— 7,9 foizdan 7,3 foizgacha (0,6) qayd etildi” (O'zbekistonda 2024-yilda kambag'allik darajasi 8,9 foizga qisqardi., 2025) (2-jadval).

3-jadval


MPIning H insidensiya va A intensivlik bo'yicha ko'rsatkichlari
(CERR, 2023).

Kamba- g'allikni kamaytirish (K)	Index	Qiymat	Ishonch oralig'i (95%)		Aholi ulushi	Ko'p o'lchovli kamba'al soni (ming kishi)
K=34%	MPI(MO)	0,080	0,080	0,080	100	4,157
	Insidensiya (H, foizda)	18,4	18,369	18,392		
	Intensivlik (A, foizda)	43,7	43,702	43,712		

O'zbekistonda ko'p o'lchamli kambag'allikni MPI joriy etish orqali kambag'allikni qisqartirish imkoniyatlarini statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqish kambag'allikning turli o'lchovlari va omillari haqida aniq tasavvur yaratadi.

2023-yilda OPHI, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi MPI holatini aniqlash maqsadida tadqiqot olib borib hisobot tayyorladi. Unga ko'ra 4516 uy xo'jaliklari, yakuniy analitik tahlillarda 4361 uy xo'jaligi ishtirok etdi. Ma'lumotlar 14 viloyat uy xo'jaliklari, ularning 48 foizi qishloq va 52 foizi shahar aholisini i (jinsiy tarkibi bo'yicha 49 foiz erkaklar va 51 foizi ayollar) tashkil etadi (CERR. OPHI.UNDP, 2023).

3-jadval ma'lumotlari kambag'allik darajasi (H) 18,4 foiz atrofida bo'lib, ko'p o'lchovli kambag'al asosan 18 yoshdan yuqori (kattalar) aholi orasida (4.2 million kishi) ekanligini ko'rsatadi, chunki ular ko'rsatkichlarining kamida 34 foizidan mahrumlikni boshdan kechirishadi. Shu bilan birga, o'rtacha intensivlik (a) 43,7 foiz, ya'ni har biri ko'p o'lchovli mahrum kattalar, o'rtacha, mahrum og'irlik ko'rsatkichlarining 44 foiziga yaqin natija qayt etdi.




2-rasm Kattalar orasida MPI ko'rsatkichlari(foizda) (CERR, 2023).

18 yoshdan yuqori aholi qatlamini mahrumlik ko'rsatkichlari o'rganib chiqilganida, eng yuqori darajalari kambag'allik va mahrumlik sanitariya (14,0 foiz) va bank hisobvarag'i (13,9 foiz) mavjud emasligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, ta'lim darajasi (13,2 foiz) va isitish yoqilg'isi (13,0 foiz) sezilarli darajada mahrumlik darajasiga ega. Mahrumlikning eng past ko'rsatkichlari arzon tibbiyot (4,2 foiz), aloqa va texnologiyalar (3,0 foiz), va ishsizlik (2,5 foiz) hissasiga to'g'ri keladi. (2-rasm)

3-rasm ma'lumotlariga ko'ra ta'lim ko'rsatilgan erishish, oziq-ovqat xavfsizligi va norasmiy ish bilan ta'minlash O'zbekiston mintaqalarining muhim muammolari hisoblanadi. Mamlakatning har bir viloyati bo'yicha quyidagi MPI mahrumlik ko'rsatkichlari aniqlandi: Andijon viloyati: ta'lim darajasi (17,8 foiz), norasmiy bandlik (16,6 foiz), sanitariya (13,1 foiz). Buxoro viloyati: oziq-ovqat xavfsizligi (16,4 foiz), ta'lim darajasi (14 foiz), norasmiy bandlik (13,8 foiz). Farg'ona viloyati: oziq-ovqat xavfsizligi (13,8 foiz), norasmiy bandlik (12,5 foiz), ta'lim darajasi (11,5 foiz). Jizzax viloyati: ta'lim darajasi (14,1 foiz), ishsizlik (11,4), sanitariya (10,9). Qoraqalpog'iston Respublikasi: oziq-ovqat xavfsizligi (15,6 foiz), ishsizlik (14,9), sanitariya (11,2 foiz). Qashqadaryo viloyati: ta'lim darajasi (14,2 foiz), oziq-ovqat xavfsizlik (11,3 foiz), norasmiy bandlik (11,1 foiz). Xorazm viloyati: oziq-ovqat xavfsizligi (18,4 foiz), ta'lim darajasi (17,3 foiz), ishsizlik (9,5 foiz). Namangan viloyati: ta'lim darajasi (13,6 foiz), sanitariya (11,2 foiz), norasmiy bandlik (11 foiz). Navoiy viloyati: norasmiy bandlik (14,3 foiz), oziq-ovqat xavfsizligi (11,93 foiz), Sanitariya (11,88 foiz). Samarqand viloyati: ta'lim darajasi (16,17 foiz), norasmiy bandlik (13,6 foiz), isitish yoqilg'isi (12,1 foiz). Surxondaryo viloyati:

ta'lim darajasi (16,22 foiz), norasmiy bandlik (15,9 foiz), isitish yoqilg'isi (12,9 foiz). Sirdaryo mintaqasi: ta'lim darajasi (16,5 foiz), oziq-ovqat xavfsizligi (15,5 foiz), norasmiy bandlik (15,4 foiz). Toshkent viloyati: oziq-ovqat xavfsizlik (15,3 foiz), ta'lim darajasi (11,7 foiz), sanitariya (11,6 foiz). Toshkent shahri: oziq-ovqat xavfsizligi (16,9 foiz), arzonligi tibbiyot (14,7 foiz), ishsizlik (13,3 foiz).



3-rasm. Mintaqalar bo'yicha MPIning har bir ko'rsatkichlar hissasi (foizda) (CERR, 2023).

O'zbekistonda daromad asosida kambag'allikni o'lchanishiga ko'ra, 2024-yilda kambag'allar soni jami aholining taxminan 8,9 foizni tashkil etgan. Bu kambag'allik darajasining past bo'lganini ko'rsatadi, ammo daromadga asoslangan yondashuv kambag'allikni to'liq ifodalay olmaydi, chunki u faqat moddiy tarafni o'z ichiga oladi.

"2025-yilning birinchi choragi yakunlariga ko'ra, O'zbekistondagi o'rtacha ish haqi 5 mln 796 ming so'mni tashkil etdi. Toshkent shahri (9,9 mln so'm) va Navoiy viloyatida (7,3 mln so'm) eng ko'p, Qashqadaryo (4,1 mln so'm) va Farg'onada (4 mln 203 ming so'm) esa kamroq maosh to'langan. O'qituvchilar va shifokorlarning oyligi eng kamligicha qolyapti"(O'zbekistonliklarning o'rtacha maoshi qancha?, 2025). Yuqoridagi holat kam daromadli oilalar uchun jiddiy iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi.

MPI yordamida faqat daromadga emas, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy sharoitlari va boshqa omillarga asoslangan yanada to'liqroq tasvir olish mumkin.

Kambag'allikning boshqa o'lchovlari O'zbekiston kontekstida daromadga qo'shimcha ravishda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ta'lim: ta'lim tizimi orqali kambag'allikni qisqartirish imkoniyatlari katta. O'zbekistonda ta'limga kirish darajasi barcha yosh guruhlari uchun muhim omildir. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 5 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning 1 foizdan kamrog'i maktabga qatnashmaydi. MPI yondashuvi yordamida ta'lim imkoniyatlarining notengligi va uning kambag'allikka ta'siri aniqroq o'lchanadi.

- Sog'liqni saqlash: O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimiga kirish imkoniyatlari, ayniqsa, qishloq joylarida cheklangan. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, qishloq joylarida tibbiy

xizmatlarga kirish darajasi shahar hududlaridan sezilarli darajada past. MPI orqali sog'liqni saqlashning samaradorligi va uning kambag'allikka ta'siri yaxshiroq o'lchanadi.

- Yashash sharoitlari: uy-joy muammolari ham kambag'allikning asosiy omillardan biridir. O'zbekistonning qishloq hududlarida 40 foizdan ortiq aholining yashash sharoitlari to'liq infratuzilmasiz va yaxshilanishga muhtoj. MPI yondashuvi yordamida bu omilni hisobga olish orqali qishloq hududlaridagi kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi mumkin.


MPI yondashuvini qo'llash orqali O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish uchun bir qator iqtisodiy imkoniyatlar mavjud. Statistik ma'lumotlar, iqtisodiy faoliyatning ba'zi jihatlarini yaxshilash zarurligini ko'rsatmoqda:

1. Ishsizlik darajasi: 2024 -yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda ishsizlik darajasi umimiy aholiga nisbatan 6,5 foizni tashkil etadi. MPI yondashuvi yordamida ish o'rinlarining yaratilishi faqat shaharlar bilan cheklanmay, balki qishloq joylarida ham rivojlantirilishi mumkin.

2. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish: Kichik va o'rta biznes sektori O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning muhim yo'llaridan biridir. "2025-yilda kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga yetkazish"(Davlat kichik va o'rta biznesning yangi loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi, 2025) sohaning vazifasi qilib belgilangan. Bu sektorga qo'shimcha investitsiyalar va qo'llab-quvvatlash yordamida kambag'allikni qisqartirish mumkin.

3. Ijtimoiy yordam va ijtimoiy himoya dasturlari ham kambag'allikni kamaytirish uchun samarali vosita hisoblanadi. 2024- yilda O'zbekistonda davlat ijtimoiy himoya dasturlari orqali jami 3 milliondan ortiq fuqaroning nafaqa va ijtimoiy yordam olishi ta'minlangan. Bu ijtimoiy dasturlar MPI yordamida yanada samarali va adolatli tarzda taqsimlanishi mumkin. MPI orqali mahalliy darajada kambag'allikka qarshi kurashishda jamoatlarni faol jalb qilish mumkin, bu esa ijtimoiy yordamning samaradorligini oshiradi.


4. Gender tengligi va ayollarga yordam. O'zbekistonda ayollar kambag'allikka ko'proq duchor bo'lishadi. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, "ishlaydigan ayollar maoshi erkaklar ish haqining 61 foizini tashkil etadi" (O'zbekistonda ishlaydigan ayollar maoshi erkaklar ish haqining 61 foizini tashkil etadi, 2025). MPIni joriy etish, ayollarni iqtisodiy jarayonlarga faolroq jalb qilish, ularning ta'lim va sog'liqni saqlash imkoniyatlarini yaxshilash orqali kambag'allikni kamaytirishga yordam beradi.



4-rasm. MPI ko'rsatkichlarining jinsiy tarkibi (foizda) (CERR, 2023).

4-rasmda kambag'allik darajasini baholaydi har bir MPI ko'rsatkichining jinslar bo'yicha umumiy hissasi berilgan. Eng yirik MPI ko'rsatkichlari erkaklar orasida norasmiy bandlik (15,9 foiz), ta'lim darajasi (13,1 foiz) va oziq-ovqat xavfsizlik (10,93 foiz); holbuki, ayollar orasida ko'rsatkichlar yuqori ta'lim darajasi (14,7 foiz), oziq-ovqat xavfsizligi (12,9 foiz) va sanitariya (10,1 foiz).

O'zbekistonda kambag'allik hududiy jihatdan juda farq qiladi. Qishloq hududlarida kambag'allik darajasi shaharlarga qaraganda yuqoriroq, bu hududlarda kamida 30-40 foiz aholining kambag'allik darajasi yuqori. MPIning joriy etish orqali bu hududlardagi ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va iqtisodiy imkoniyatlarni yaxshilash mumkin.



5-rasm. Shahar va qishloqlarda MPI ko'rsatkichlari (CERR, 2023).

O'zbekistonda MPIning joriy etishning muhim imkoniyatlari:

Birinchidan statistik monitoring hisoblanadi. MPI yordamida kambag'allikning har bir o'lchovini real vaqt rejimida kuzatib borish mumkin. Bu esa davlat va jamoat dasturlarining samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan maqsadli dasturlar ishlab chiqish lozim. MPI yondashuvi turli guruhlarini, masalan, ayollar, yoshlar, qishloq aholisi va nogironlar kabi guruhlariga moslashtirilgan maqsadli yordam dasturlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Uchinchidan samarali resurs taqsimotini amalga oshirish kerak. MPI yordamida resurslar va yordamlar faqat daromadga emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga asoslanib aniq va adolatli taqsimlanadi.

Xulosa va takliflar.

"O'zbekiston hozirgi kunda tez fursatda rivojlanib borayotganligi davlat bo'lganligi sababli, kambag'allik nafaqat iqtisodiy, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun jiddiy to'siqdir. Uni bartaraf etish faqat moddiy yordam bilan cheklanmasligi kerak, shu sababli faqatgina monetar siyosat bilan bu muammoni hal qilish to'g'ri yo'l bo'lmasligi mumkin. Kambag'allikni aniqlash va kamaytirish har bir insonning salohiyatini ro'yobga chiqarishga imkon berib, yanada kuchli va farovon jamiyatni barpo etishga xizmat qiladi. Ko'p o'lchamli kambag'allik usulining afzalliklari yurtimizning hozirgi holatiga juda ham mos, chunki u kambag'allikni kompleks yondashuv bilan tahlil qiladi. Ushbu usul natijalari asosida davlat

resurslarini samarali taqsimlash va ijtimoiy siyosatni optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu naqafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanish uchun ham mustahkam asos bo'ladi. Shu sababli barcha usullarni o'rgangan holda, ko'p o'lchovli kambag'allikni aniqlash usuli eng muqobil hisoblanadi" (Sobitov, 2024).

Adabiyotlar/Литература/References:

CERR. (2023) OPHI.UNDP. Uzbekistan pilot multidimensional poverty index. Poverty and deprivation analysis using the Multidimensional Poverty Index (MPI). P.17. Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report 2023 | United Nations Development Programme

gazeta.uz (2024) O'zbekistonda 2024-yilda kambag'allik darajasi 8,9 foizga qisqardi. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/03/poverty/>

kunu.uz (2023). O'zbekistonda ishlaydigan ayollar maoshi erkaklar ish haqining 61 foizini tashkil etadi – Jahon banki. <https://kun.uz/news/2023/03/13/ozbekistonda-ishlaydigan-ayollar-maoshi-erkaklar-ish-haqining-61-foizini-tashkil-etadi-jahon-banki?ysclid=ma8eamnw4o227546017>

kunu.uz (2025). Ўзбекистонликларнинг ўртача маоши қанча? [online] Kun.uz. Available at: <https://kun.uz/kr/95897692>

Norma.uz (2025). Informatsionno-pravovoy portal. Davlat kichik va o'rta biznesning yangi loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi. [online] Available at: https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/davlat_kichik_va_urta_biznesning_yangi_loyihalarini_qullab-quvvatlaydi?ysclid=ma8ey6x1iv215648574

president.uz (n.d.) Kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. <https://president.uz/oz/lists/view/7537>

Sobitov Z.S. (2024) O'zbekistonda kambag'allikni aniqlash usuli, muammolari va afzalliklari.// "yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari: muammo va yechimlari" xalqaro konferensiya materiallar to'plami.. Jizzax. b.272-274. <https://zenodo.org/records/14546188>

Statistik to'plam. (2024) O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi.– Toshkent. B.80.